


2017 yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar


O'zbekiston Respublikasida 2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 39536,1 mlrd. so'm asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan deyarli o'sish kuzatilmadi, aniqrog'i 101,0 foizni tashkil qildi.

1 diagramma



2 diagramma


2017 yil yanvar-sentabr uchun moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar



Asosiy kapitalga investitsiyalarning nisbatan katta qismi 52,6% jalb etilgan mablag`lar hisobidan amalga oshirildi. Korxonalar, tashkilotlar hamda aholining o`z mablag`lari hisobidan amalga oshirilgan investitsiyalar ulushi esa nisbatan kam ulushni 47,4%ni tashkil etdi.


3 diagramma

Yanvar-sentabr oylarida moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalar



4 diagramma


Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar



Asosiy kapitalga investitsiyalarning hududiy tarkibida hamon Buxoro, Toshkent shahri va Qashqadaryo viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Bu ko`rsatkich bo`yicha Sirdaryo va Jizzax eng oxirgi o`rinlarda qolmoqda.


5 diagramma

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning o`shish surati



6 diagramma


Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning asosiy qismi, ya'ni 61,1%i yangi ishlab chiqarish quvvatlari va ijtimoiy soha obyektlarini barpo etish, mavjud obyektlarni rekonstruksiya qilish bo'yicha qurilish - montaj ishlariga yo'naltirilgan. Korxonalar va tashkilotlarni texnik va texnologik jihatidan boyitish maqsadida asbob-uskunalariga investitsiyalar ulushi 30,1%ni tashkil etgan bo'lsa, qolgan 8,8 %i boshqa xarajatlarni tashkil etdi.


7 diagramma

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi



8 diagramma


Yanvar-sentabr oylarida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida nodavlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar va tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalar ulushi



Joriy yilda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalarning ulushi O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 4.3% punktga oshdi.

9 diagramma


Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jamiga nisbatan %da)



Turar-joy qurilishi, tashish va saqlash kabi faoliyat turlariga investitsiyalar ulushi joriy yilda o'tgan yil mos davridagiga nisbatan kamaygan bo'lsa, tog'-kon sanoati, ishlab chiqarish sanoati, elektr va gaz bilan ta'minlash kabi faoliyat turlariga investitsiyalar hajmi ortdi.

10 diagramma


Asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar tarkibi, mlrd. so'm



O`zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning asosiy qismini, 79,7%ini to`gridan-to`g`ri xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil etgan bo`lsa, 18,1%ini Ozbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar va 2,2%ini boshqa investitsiya va kreditlar tashkil etdi.

11 diagramma


Asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalarning hududlar bo`yicha tarkibi, jamiga nisbatan %da



Hududlar kesimidagi xorijiy investitsiya va kreditlar bo`yicha Kandim guruhi tarkibida gazni qayta ishlash zavodi kompleksi qurilayotganligi sababli Buxoro viloyati yaqqol yetakchilik qilmoqda.

12 diagramma


Qurilish ishlari



Bajarilgan jami qurilish ishlari tarkibida kichik tashkilotlar va mikrofirmalarning ulushi boshqalarga nisbatan ko'proq bo'lib, jami hajmning 37,0%ini tashkil etdi, yirik qurilish pudrat tashkilotlari ulushi 33,0%ni, jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi turar-joy qurilishi ulushi 20,9 %ni va boshqa qurilish ishlari ulushi 9,1 %ni tashkil etdi.

13 diagramma

Hududlar kesimida qurilish ishlari



14 diagramma

Yanvar-sentabr oylarida nodavlat mulkchiligidagi korxonalar va tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmning ulushi

